QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 6 - oktabr 242-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

# Qo‘ng‘irot tumani 2023-yil 2-chorak mahalliy byudjet daromatlarining ortiq bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq:

1. Quyidagilar:

- tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov)ning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5216-sonli qaroriga muvofiq tumanimizda 2023-yil davomida ota-ona qaramog‘idan ayrilgan 5 nafar yetim bolalarning uy-joy bilan ta’minlanganligi sababli, ushbu uy-joylarning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish xarajatlariga jami 10,0 mln. (o‘n million) so‘m mablag‘ ajratish zarurligi to‘g‘risidagi;

- ushbu mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani 2023-yil 2-chorak mahalliy byudjet daromatlarining ortiq bajarilgan qismi hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi ushbu maqsadlarga zarur bo‘lgan mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani 2023-yil 2-chorak mahalliy byudjet daromatlarining ortiq bajarilgan qismi hisobidan ajratsin.

3. Qo‘ng‘irot tumani hokimligining bosh hisobchisi (S.Qaldibaev)ga ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda va muddatda o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanovga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **B.Madaminov**